

MOLIYAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA FOND BOZORINI TARTIBGA SOLISH

Sultonov Sherali Nuralievich
TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi" kafedrasi dotsenti, PhD

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning yuqoriligi bilan bog'liq eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan, (fond bozorida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar turlarining ko'pligi va likvidlilikning yuqoriligi, aksiyadorlik jamiyat (AJ)larida yuqori dividend siyosati, birja savdo tizimlarining takomillashganligi) fond bozorining yuqori darajada rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) kapitalizatsiyasining yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmiga nisbatan ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. «Fond bozori savdo aylanmasi YaIM hajmiga nisbatan xorijiy mamlakatlardan Gonkongda 1200 foizni, Singapurda 188 foizni, AQShda 149 foizni, Yaponiyada 127 foizni, Malayziyada 112 foizni, Janubiy Koreyada 87 foizni, Xitoyda 46 foizni, Rossiyada 34 foizni, Qozog'istonda 22 foizni, Turkiyada 19 foizni, global ko'rsatkich esa 93 foizni tashkil etadi»¹⁶⁵. Jahon mamlakatlarida fond bozorlari turli darajada rivojlangan bo'lib, makroiqtisodiy rejalar ishlab chiqish va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, jumladan, xorijiy kapital oqimlari va aholi jamg'arma mablag'larini fond bozori orqali jalb qilishda muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy globallashuv sharoitida fond bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarning yechimiga erishish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida fond bozorining milliy va xalqaro tizimlarini rivojlantirishga urg'u berilmoqda hamda uzlusiz ravishda takomillashtirilmoqda. Jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda «qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasi so'nggi yillarda YaIM hajmiga nisbatan 100-200 foizni tashkil etgan holda, 2020 yildan keyin esa 300 foizgacha yetishi bashorat qilinmoqda»¹⁶⁶. Ammo, yirik kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushining yuqoriligi, fond bozori orqali investitsiya jalb etishni takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar likvidliligini oshirish, jahon kapital bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali moliyaviy resurslar jalb qilishni kengaytirish, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Strategik rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqeini hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish imkoniyatlarini oshirish, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirish, fond birjasida

¹⁶⁵Jahon birjalari federatsiyasi ma'lumotlari. <http://www.world-exchanges.org>.

¹⁶⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtaida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: «Ma'naviyat», 2018. 189-b.

aksiyalar qiymatini muntazam e'lon qilib borish, aholida aksiyalar sotib olishga ishtiyoq va intilishni oshirish, aksiyalarni haqiqiy qimmatli qog'ozga aylantirish hamda muhim daromad manbai bo'lishini ta'minlash O'zbekiston fond bozori taraqqiyotini ta'minlashdagi muhim omillardandir. Shu boisdan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan «2020-2025 yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025 yil oxiriga qadar kamida 10-15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlandi»¹⁶⁷. Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda fond bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish hamda fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi va qimmatli qog'ozlar muomalasi bo'yicha moliyaviy munosabatlar majmui bo'lib, uning asosiy vazifasi «jamg'arma-investitsiya» mexanizmini ishga tushirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika taraqqiyotiga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni to'plash va taqsimlash, yuridik va jismoniy shaxslarning sarmoyalarini jalb qilish, uni yanada ko'paytirish va iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvini ta'minlash kabilardan iborat.

Shuningdek, fond bozori va unda faoliyat ko'rsatayotgan vositachilar moliyaviy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, ortiqcha mablag'larni investorlardan iste'molchilarga qayta taqsimlash jarayonini tezlashtirishga imkoniyat beradi.

Fond bozorida bir tomondan – kapital yetkazib beruvchilar, bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan shaxslar, ushbu mablag'larni investitsiya qilish, ko'paytirish istagida bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, alohida sub'ekt sifatida davlat ishtirok etadi.

Ikkinci tomondan esa – yangi ishlab chiqarishni boshlash, ishlar, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kengaytirish, qayta ta'mirlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich yoki qo'shimcha kapitalga muhtoj bo'lgan bozor sub'ektlaridir. Shuni alohida qayd etish joizki, kapitalga talabgor sifatida korxonalar, tashkilotlar, aholi shuningdek davlat ham bevosita ishtirok etishi mumkin.

Fond bozorida mablag'larni jalb etish maqsadida kapitalga ehtiyoj sezuvchilar qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradi va ularni sotish natijasida ishlab chiqarish (savdo-sotiq, moliyaviy faoliyatni samarali tashkil etish) jarayonini amalga oshirish uchun mablag'lar oladi.

Kapitalga talabgorlar (emitentlar) va yetkazib beruvchilar (sarmoyadorlar) o'rtasidagi munosabatlar qaytarilish, to'lovililik yoki mol-mulkka (moddiy-ma'naviy) egalik huquqlari shartlari asosida amalga oshiriladi.


Fond bozorlari tashkiliy tuzilishiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi bozorlarga ajratiladi.

¹⁶⁷Mirziyoev Sh.M. Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti. 2019 yil 7 oktyabr. <http://xs.uz/uzkr/post/fond-bozorini-rivozhlanirish-masalalari-muhokama-qilindi>.

Birlamchi bozorda birinchi marta chiqarilgan aksiyalar joylashtiriladi va oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Uning asosiy ishtirokchilari bo'lib, emitentlar va investorlar hisoblanadi. Asosiy va aylanma kapitalga investitsiyalar uchun moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezuvchi emitentlar fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarga bo'lgan taklifni aniqlaydi.

O'z kapitalini samarali joylashtiruvchi investorlar qimmatli qog'ozlarga bo'lgan taklifni shakllantiradi. Aynan, birlamchi bozorda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari iqtisodiyotni investitsiyalashga safarbar etiladi.

Ikkilamchi bozorda esa qimmatli qog'ozlar muomalasi amalga oshiriladi (ilgari chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni qayta sotish shakli). Shu munosabat bilan fond bozori tarkibini quyidagicha tasvirlash mumkin:



1-rasm. Fond bozori tarkibi¹⁶⁸

Ajda mehnat jamoasining aksiyador sifatida o'z mehnatining natijalaridan manfaatdorligi ortmoqda. Xususan, fond bozori bu insonni ishlab chiqarish vositasidan va uning mehnati natijalaridan begonalashuviga barham berishning eng muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, «fond bozoridagi ayrim tartibsizlik, istalgan boshqa bozordagi kabi, uning ishtirokchilariga ham, davlatga ham juda qimmatga tushishi qimmatli qog'ozlarning mayda egalari tomonidan o'z jamg'armalarining yo'qotilishidan tortib, to muqarrar iqtisodiy larzalar bilan birjaning barbod bo'lishigacha olib kelishi mumkin»¹⁶⁹. Mazkur salbiy jarayon ehtimolini minimum holatga tushirish, qimmatli qog'ozlar doimiy aylanmasi, qo'lidan-qo'lga o'tishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish – bu fond bozorini tashkil qilish va tartibga solish jarayonida doimiy ravishda hal etilishi zarur bo'lgan asosiy vazifalardan biridir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni aytish mumkin, xususan, fond bozori yordamida kapitalning (sanoat korxonalari va bank kapitali) harakatchanligi oshiriladi, mablag'larni jumladan, uy xo'jaliklarining shaxsiy jamg'armalarini investitsiya uchun tezlik bilan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga

¹⁶⁸Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁶⁹Рынок ценных бумаг: Учеб. пос. для вузов / Под ред. проф. Е.Ф.Жукова. – М.: «ЮНИТИ», 2008. – С. 133.

jalb etish imkonini beradi. Fikrimizcha, fond bozorida qimmatli qog'ozlarning muntazam aylanishi- mamlakat moliya tizimini tubdan modernizatsiya qilishni rag'batlantiradi. Chunki, qimmatli qog'ozlar fond bozorining iqtisodiy faollik indikatori hisoblanib, ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatuvchilar, tijorat banklari, fond birjalari, investitsiya fondlari va aholi o'rtaida kapitalning samarali xarakatini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotda fond bozorining rolini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin: birinchisi, fond bozorining iqtisodiyotdagi rolini hamda qimmatli qog'ozlar instrumentlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish jihatidan; ikkinchisi, fond bozori yordamida ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan qator muhim muammolarni hal etish nuqtai nazaridan.

Fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish – bu fond bozoridagi jarayonlar rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash, yo'lga qo'yish va ma'lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan harakatlarni anglatadi va bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) hamda bilvosita usullar yordamida fond bozori davlat tomonidan tartibga solinadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy resurslarni to'plash, kapital byudjetni tuzish, investitsiya portfelini shakllantirish, moliyaviy risklarni taqsimlash va boshqarish, mulkchilik munosabatlarini rivojlanish, oldi-sotdi munosabatlarining vositasi sifatida ishtirok etib, bozorni qayta taqsimlash, davlat va Ajlar (korporatsiyalar) qarzlarini moliyalashtirish maqsadida chiqariladi. Mamlakatimizda to'plangan tajriba ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish uchun turli korxonalar, tashkilotlar mablag'lari va aholining shaxsiy jamg'armalarini faol investitsiyalash imkoniyatlari yuzaga keltirilayotganligini tasdiqlaydi.

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

*Bauyedtinov M.J.
TDIU, PhD, dotsent
Janizakova Sh.M.
TDIU, assistent*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-soni Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki maxsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmini 1,4 baravarga oshirish, mamlakatda investitsiya muxitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun